

# Shavkat Mirziyoyev Turkiya Prezidentiga hamdardlik bildirdi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Turkiyaning g'arbiy hududlarida yuz bergan tabiiy ofat – kuchli zilzila oqibatida insonlar qurbon bo'lgani, ko'plab fuqarolar jarohat olgani hamda katta talafot ko'rilgani munosabati bilan Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'anga ta'ziya yo'lladi.

Davlatimiz rahbari halok bo'lganlarning oila a'zolariga chuqur hamdardlik izhor etib, jarohatlanganlar tez fursatlarda shifo topishini tiladi.

**Manba**